



BO'LAJAK TEXNOLOGIYA O'QITUVCHILARINI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR NEGIZIDA TARBİYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Sadaddinov U.U.

Nukus DPI katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada talabalar milliy va umuminsoniy qadriyatlarini rivojlantirishning unumdorligini oshiruvchi xususiyatlar, ularning ma'naviy qadriyatlarga erkin va ijobiy munosabatda bo'lishi, pedagogik kasbi bilan bog'liq bo'lgan barcha ma'naviyat turlariga qiziqishi, talabalar ma'naviy dunyosining boyligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabati va onglilik darajasi bilan ham belgilanishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: talaba, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, inson, ma'naviyat, inson, rivojlanish.

Аннотация. В статье представлена информация об особенностях, повышающих продуктивность развития у учащихся национальных и универсальных ценностей, их свободного и позитивного отношения к духовным ценностям, их интереса ко всем видам духовности, связанным с педагогической профессией, богатства духовного мира учащихся, их отношения к национальным и универсальным ценностям и уровня их осознанности.

Ключевые слова: учащийся, национальные и универсальные ценности, личность, духовность, личность, развитие.

Annotation. The article provides information on the features that increase the productivity of the development of students' national and universal values, their free and positive attitude to spiritual values, their interest in all types of spirituality related to the teaching profession, the richness of students' spiritual world, their attitude to national and universal values, and their level of awareness.

Key words: student, national and universal values, person, spirituality, person, development.

KIRISH

Mamlakatimizda yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berish, ularning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, intellektual salohiyati va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, jamiyatning barqaror taraqqiyoti, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi, avvalo, har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan hamda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yoshlar salohiyatiga bevosita bog'liqdir. Shu bois ta'lim tizimida talabalarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, fuqarolik mas'uliyati, vatanparvarlik tuyg'usi, ma'naviy immunitet va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda talabalarga ta'lim-tarbiya berish orqali ularning ma'naviy va intellektual salohiyatlarini oshirish jamiyat taraqqiyotida asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida "Yoshlarning ma'naviy,



intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash asosiy vazifa sifatida” [1] belgilangan.

Ushbu vazifalar ta’lim muassasalarida olib borilayotgan o‘quv-tarbiyaviy ishlar mazmunini takomillashtirish, yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish hamda ularda sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etadi.

Hozirgi globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va madaniyatlararo integratsiya sharoitida yoshlarning ma’naviy tarbiyasini kuchaytirish, ularda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy merosga hurmat va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat tuyg‘ularini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan talabalarning aqliy va ma’naviy dunyosini boyitishga xizmat qiluvchi pedagogik omillarni aniqlash, ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini ilmiy asosda tadqiq etish hamda o‘quv-tarbiyaviy jarayonga samarali tatbiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning mazmun va shakllarini takomillashtirish hamda talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan barqaror hayotiy pozitsiyani shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Har bir millat o‘z istiqbolini kamolga yetayotgan yoshlari timsolida ko‘radi. Shu bois, mamlakatimizda istiqbol yillarida navqiron avlod o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng qaror toptirish, ularni turli zararli ta’sirlardan asrash, pirovarida barkamol inson sifatida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Yoshlarning ma’naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgidek murakkab sharoitda milliy o‘zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan xurujlar, ularning ongi hamda qalbini egallashga qaratilgan g‘arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgan har birimizdan yanada hushyor va ogoh bo‘lishni talab etmoqda.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI

Talabalar milliy va umuminsoniy qadriyatlarini rivojlantirishning unumdorligini oshiruvchi xususiyatlar, ularning ma’naviy qadriyatlarga erkin va ijobiy munosabatda bo‘lishi, pedagogik kasbi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ma’naviyat turlariga qiziqishi, talabalar ma’naviy dunyosining boyligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati va onglilik darajasi bilan ham belgilanadi.

Hozirgi zamon sotsiologik tadqiqotlarida talabalarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishga nisbatan qiziqishlariga jiddiy e’tibor



qaratilayotgani ta'kidlanmoqda, chunki har qanday jamiyatda belgilangan me'yoriy qonuniyatlar tizimi bo'lib, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar yetakchilik qiladi.

TADQIQOD NATIJALARI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi mehnat faoliyatining ma'naviy qadriyatlarga yo'naltirilganligiga bog'liq. Bu keng qamrovli va salmoqli omillar asosida o'qituvchining butun umri davomida amalga oshiradigan ko'p qirrali pedagogik faoliyati mujassamlashgan.

O'qituvchi o'zining qizg'in mehnat faoliyati va kasbiy mahorati bilan ma'naviy qadriyatlarga nechog'lik boy ekanligini ta'lim-tarbiya jarayonida namoyish etadi. Uning o'quvchilar jamoasi bilan olib boradigan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatidagi barcha yutuqlari ushbu qadriyatlar tufaylidir.

Talabalar oliy ta'lim tizimida bilim olish bilan birga ilmiy tafakkurlarini boyitib kelajakda kasbiy faoliyatlarini bezaydigan quyidagi ma'naviy qadriyatlar tizimini muntazam egallab borishlari zarur:

Tadqiqotchi olim O.Musurmonovning ta'kidlashicha, milliy va umuminsoniy qadriyatlar inson tomonidan qadrlanadigan narsalardan iborat bo'lib, kishilarning talabi, xohishi, qiziqishi va maqsadi asosida o'zaro munosabat, o'zaro ta'sir natijasida vujudga keladigan holatdir. Demak, qadriyatlarning mohiyatini pedagogik nuqtai nazardan izohlaganimizda, insonning ma'naviy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan, amaliy faoliyatda davr sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan, o'z shakl va mazmunida xalqning ma'naviy olamini mujassam etgan, asrlar davomida xalqning ma'naviy madaniyatini shakllantirish manbai sifatida qadrlanib kelingan ma'naviy-ruhiy hatti-harakatlar, narsa va hodisalar majmui [5].

O'qituvchining kasbiy faoliyatidagi mehnati natijalari uning umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabati bilan o'lchanishi yevropa olimlarining ham ilmiy tadqiqot ishlaridan keng o'rin olgan. Jumladan, N.V.Kuxarev o'qituvchining kasbiy faoliyatida umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan munosabatini turkumlarga ajratib, quyidagicha ta'rif beradi: "qadriyatlar – oshkora yoki yashiringan, individga yoki guruhga xos bo'lgan orzu istak haqidagi tasavvur bo'lib, ular tomonidan kasbiy faoliyat yuzasidan bajarilayotgan mehnat turlarini, vositalarini va maqsadlarini tanlashga ta'sir ko'rsatadi" [4].

Pedagog olimlar o'z tadqiqotlarida talabalarining milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan munosabatini va ularni bevosita o'zlashtira olish qobiliyatlariga qarab ikkita asosiy turga ajratib ko'rsatadilar:

1. "Talabalar ongini rivojlantirish"ga yo'naltirilganlik: ushbu toifadagi talabalar jamiyat tomonidan belgilangan ijtimoiy axloqiy omillarga tayangan holda avvalo o'zlarida ma'naviy qadriyatlarni har tomonlama rivojlantirishga intiladilar.



2. “Ta’lim jarayonida birorta ma’naviy natijaga erishish”ga yo’naltirilganlik: Ushbu toifadagi talabalar, o’zlarining faqatgina aqliy rivojlanishidan manfaatdordirlar. O’zlashtirilgan o’quv materiallarini qat’iy tekshirib boradilar. Bunday yo’naltirilganlikda talabalar jamiyatning faqatgina ta’lim sohasiga nisbatan munosabatlarini bajarish bilan bog’liq faoliyatni olib boradilar. Jamiyat ta’lim tizimidagi faoliyatlardan qoniqmagan taqdirda ham, ushbu turdagi talabalarning ma’naviy olami ustunlik qiladi va samarali deb tan olinadi [3].

V.P.Bespalko insondagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga ikki xil ta’rif bergan: U ma’naviy qadriyat deganda insonning o’z maqsadini boshqa maqsadlar bilan solishtirganida ustunligiga ishonchi va undan faxrlana olishi, yoki individ xulqining boshqalar xulqi bilan solishtirganda ustunligiga ishonchini tushunadi. Shundan kelib chiqib, u talabalarda shakllantirish lozim bo’lgan ma’naviy qadriyatlarning ikkita turini ajratadi: maqsadli qadriyatlar va vositali qadriyatlar. Birinchisini ideal qadriyatlar, ikkinchisini esa instrumental qadriyatlar deb ataydi [2].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda yoshlarni milliy o’zlikni anglash, tarixiy-madaniy merosga hurmat, vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati hamda umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida namoyon bo’lmoqda.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, talabalarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo’lgan munosabati ularning ma’naviy kamoloti, intellektual salohiyati, kasbiy tayyorgarligi hamda kelajakdagi pedagogik faoliyatining samaradorligini belgilovchi muhim mezonlardan biridir. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan o’quv-tarbiyaviy jarayon mazmuniga ma’naviy qadriyatlarni singdirish, talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish zarur.

Ayniqsa, bo’lajak pedagoglarda ma’naviy qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilish, ularga amaliy faoliyatda amal qilish hamda kelajak avlod tarbiyasida ushbu qadriyatlarni samarali qo’llash kompetensiyalarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o’qituvchi shaxsining ma’naviy yetukligi va qadriyatlarga sodiqligi ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Demak, talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishga yo’naltirilgan pedagogik faoliyatni takomillashtirish, ularning ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarini yuksaltirish hamda qadriyatlarga asoslangan barqaror dunyoqarashni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining dolzarb ilmiy-pedagogik muammolaridan biri bo’lib qolmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son qarori.
2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. –М.: Издательство ин-та проф.образования. 1995. -104 с.
3. Sadaddinov U.U. Texnologiya fanidan bo'lajak o'qituvchilarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari. // PEDAGOGIKA 1/2023 Ilmiy-nazariy va metodik jurnal "Pedagogika" jurnali 2023, №1. –B. 273-276.
4. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dokt... diss. – T., 1993. – 364 b.

